



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 2219-17
2025 - yil 13 - May

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
VAZIRINING BUYRUG'I

**“Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarini tasdiqlash
to‘g‘risida”gi buyruqqa o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish
haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq buyuraman:

1. O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bosh direktorining 2011-yil 22-fevraldagi 1-yu-son “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 2219, 2011-yil 18-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 16-son, 167-modda) ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Ushbu buyruq O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir
11-Aprel 2025-yil
280-mh son



SHERMATOV
SHERZOD
XOTAMOVICH

Kelishildi:

Rais
14-Mart 2025-yil



TURAXUJAYEV
HALILILLO
SOBIRJONOVICH

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar
vazirining 2025-yil 11-apreldagi 280-mh-son buyrug'iga
ILOVA

**“Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini tasdiqlash
to'g'risida”gi buyruqqa kiritilayotgan o'zgartirish va
qo'shimchalar**

1. Buyruqning muqaddimasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O'zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq buyuraman:”.

2. Qoidalarda:

1) muqaddimadan “Umumjahon pochta ittifoqi aktlari, “Aloqa to'g'risida”gi, “Pochta aloqasi to'g'risida”gi, “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 19-iyuldagi 339-son “Pochta aloqasi sohasida faoliyatni takomillashtirish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

2) 2-banddagi “O'z DSt 1225:2009” degan so'zlar “O'zMSt 162:2024” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

3) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Pochta aloqasi operatorlari va provayderlari pochta aloqasi xizmatlarini (pochta, kuryerlik jo'natmalarini qabul qilish, qayta ishlash, tashish va yetkazib berish) ko'rsatish bo'yicha faoliyatni Umumjahon pochta ittifoqi aktlari, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va ushbu Qoidalar asosida amalga oshiradilar.

Pochta aloqasining milliy operatoriga (bundan buyon matnda milliy operator deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining butun hududida universal pochta xizmatlarini majburiy ravishda ko'rsatish bo'yicha vazifalar yuklatiladi.

Milliy operator pochta aloqasining O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarini Umumjahon pochta ittifoqi hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida bajarish uchun tayinlangan operatori maqomiga ega bo‘ladi.

Umumjahon pochta ittifoqining blanklari va hujjatlari faqat milliy operator tomonidan foydalanilishi mumkin.

Milliy operator oddiy xatlarni, pochta varaqchalarini va pul mablag‘larining pochta o‘tkazmalari (bundan buyon matnda pul o‘tkazmalari deb yuritiladi)ni, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat korxonlari, muassasalari, tashkilotlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining yozma xat-xabarlarini, bildirishnomalarini, chaqiruv qog‘ozlarini va boshqa yuridik ahamiyatga ega hujjatlarini Elektron pochta jo‘natmalarining yagona milliy tizimi orqali yetkazib berish (topshirish) bo‘yicha pochta xizmatlarini ko‘rsatishda mutlaq huquqqa ega.

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlari:

o‘zlariga tegishli transport vositalaridan, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli, maxsus farqlash belgilariga ega bo‘lgan transport vositalaridan shartnoma asosida foydalanadi;

belgilangan tartibda tasdiqlanadigan, pochta aloqasi normativlari hisobga olingan holda, pochta aloqasi obyektlari tomonidan ko‘rsatiladigan pochta aloqasi xizmatlari ro‘yxatini mustaqil belgilaydi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiradi.”;

4) 5-bandda:

beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

oltinchi – yigirma uchinchi xatboshilar tegishli ravishda beshinchi – yigirma ikkinchi xatboshilar deb hisoblansin;

o‘n ikkinchi xatboshidagi “pochta, kuryerlik jo‘natmalari va pul o‘tkazmalarini” degan so‘zlar “pochta va kuryerlik jo‘natmalarini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

o‘n beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

o‘n oltinchi - yigirma ikkinchi xatboshilar tegishli ravishda o‘n beshinchi - yigirma birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

yigirmanchi xatboshidan “Shaharlarda va tuman markazlarida joylashgan pochta aloqasi obyektlari ichida, bundan tashqari, oddiy pochta varaqasini va oddiy xatlarni pochta konvertlarida jo‘natishga mo‘ljallangan pochta qutisi ham bo‘lishi kerak.” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

5) 7-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Milliy operator foydalanuvchilar uchun qulay joylarda oddiy xatlar va pochta varaqchalarini yig‘ish uchun pochta qutilarini mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, binolar va inshootlar mulkdorlari (egalari, foydalanuvchilari) bilan kelishgan holda joylashtiriladi.”;

6) 8-10, 17, 26, 120 va 196-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

7) 11-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Pochta aloqasi operatorlari pochta aloqasi obyektlarini ilova qilinadigan hujjatlarni, pochta va kuryerlik jo‘natmalarini rasmiylashtirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida foydalaniladigan nomli buyumlar bilan ta‘minlaydi.”;

8) 13-bandda:

birinchi xatboshidan “iz tushirish moslamalari, termopayvandlash mashinasining plastinalari, nazorat-geraldli muhrlar,” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

ikkinchi xatboshidan “, kvitansiyalarga” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

oltinchi-sakkizinchi xatboshilar chiqarib tashlansin;

to‘qqizinchi xatboshi oltinchi xatboshi deb hisoblansin;

9) III bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“III bob. Pochta aloqasi xizmatlari”;

10) 15-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“15. Pochta xizmatlari jumlasiga pochta jo‘natmalarini jo‘natish, shu jumladan tezlashtirilgan pochta rejimida jo‘natish kiradi.

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlari tomonidan quyidagi turdagi pochta xizmatlari ham ko‘rsatilishi mumkin:

pochta jo‘natmalarini qo‘shimcha jo‘natish va qaytarish;

yozma xat-xabarlar va posilkalarni o‘rash;

pochta jo‘natmalariga ilova qilinadigan manzil blanklarini, joylanma ro‘yxatlarni, pul mablag‘lari pochta o‘tkazmalarining blankalarini va boshqa blankalarni to‘ldirish;

manzillarni va yozma xabarlarni yozish;

pochta aloqasi xizmatlarini uyda ko‘rsatish;

telegraf xabarlarni va boshqa xabarlarni amalga oshirish;

pochta to‘lovi davlat belgilarini va filateliya mahsulotlarini realizatsiya qilish;

pochta aloqasi sohasidagi boshqa xizmatlar.”;

11) 16-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“16. O‘zbekiston Respublikasi hududida adresatga pochta jo‘natmalarini jo‘natish uchun qabul qilinadigan pochta jo‘natmalarining quyidagi turlari ichki pochta jo‘natmalariga kiradi.”;

“g” kichik banddagi “sekogrammalar” degan so‘z “ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

“d” kichik banddagi “odatdagi” degan so‘z “oddiy” degan so‘z bilan almashtirilsin;

“z” kichik banddagi “tegishlicha o‘ramdagi bosma nashrlar” degan so‘zlar “pul o‘tkazmalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

12) 19-bandning ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

13) 25-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“25. Xalqaro pochta jo‘natmalariga milliy operator tomonidan O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga jo‘natiladigan, O‘zbekiston Respublikasi hududiga milliy operatorning manziliga keladigan yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit bilan o‘tadigan pochta jo‘natmalariga quyidagilar kiradi:”;

“g” kichik banddagi “sekogrammalar” degan so‘z “ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

“d” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“d) mayda paketlar (oddiy, buyurtma);”;

“e” kichik banddagi “odatdagi” degan so‘z “oddiy” degan so‘z bilan almashtirilsin;

“z” kichik banddagi “tegishlicha o‘ramdagi bosma nashrlar” degan so‘zlar “banderollar (oddiy, buyurtma)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi “i” kichik band bilan to‘ldirilsin:

“i) pul o‘tkazmalari.”;

o‘ninchi xatboshi o‘n birinchi xatboshi deb hisoblansin;

o‘n birinchi xatboshidan “va yetkazib berish (topshirish)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

14) 27-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“27. Xalqaro pochta jo‘natmalari O‘zbekiston Respublikasi hududida ichki pochta jo‘natmalari uchun belgilangan muddatlarda jo‘natiladi.”;

ikkinchi xatboshidan “va yetkazib berish (to‘lash)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

15) 34-35-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“34. Ko‘zi ojizlar uchun ichki va xalqaro jo‘natmalarda ularning ko‘zi ojizligi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf qilish maqsadida ko‘zi ojizlar tashkiloti va ko‘zi ojizlar, shuningdek ko‘zi ojizlar o‘rtasida o‘zaro bir-biriga ishlab chiqarilgan yoki moslashtirilgan yozma xat-xabarlar, shaklidan qat’i nazar adabiyotlar (shu jumladan, ovoz yozish), har qanday uskunalar va materiallar yuborilishi mumkin.

35. Banderollar belgilangan o‘lcham, og‘irlik va o‘rovdagi bosma nashrlar, ish qog‘ozlari, qo‘lyozmalar, fotosuratlar, albomlar, daftarlarni o‘z ichiga oladi.”;

16) 37-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tezkor pochta xizmatining xalqaro jo‘natmalarini jo‘natish Umumjahon pochta ittifoqining hujjatlariga muvofiq “EMS” tezkor pochta tizimi bo‘yicha, “EMS” ko‘p tomonlama namunali kelishuvi yoki ikki tomonlama kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.”;

17) 40-bandning ikkinchi xatboshisidan “hamda yetkazib berish (topshirish)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

18) 41-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“41. Quyidagilar universal pochta xizmatlari jumlasiga kiradi:

foydalanuvchilarning oddiy yozma xat-xabarlarini (pochta varaqchalarini, xatlarni, banderollarni va mayda paketlarni) jo‘natish bo‘yicha ehtiyojlarini qanoatlantirishga doir pochta xizmatlari;

ko‘zi ojizlar uchun jo‘natmalar almashinuvida ko‘zi ojizlarning va ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan muassasalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish bo‘yicha pochta xizmatlari.

Foydalanuvchilarga universal pochta xizmatlari O'zbekiston Respublikasi doirasida, maqbul narxlar bo'yicha ko'rsatiladi.

Universal pochta xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha namunaviy shartnoma (oferta) milliy operatorning rasmiy veb-saytida joylashtirilishi lozim.”;

19) 42-bandda:

birinchi xatboshidagi “pochta aloqasi xizmatlari” degan so'zlar “pochta xizmatlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshi “Universal” degan so'zdan keyin “pochta” degan so'z bilan to'ldirilsin;

20) 43-44-bandlar “Universal” degan so'zdan keyin “pochta” degan so'z bilan to'ldirilsin;

21) 45-46-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“45. Ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalarini pochta aloqasi operatori yoki provayderi tomonidan pochta kuryeri orqali jo'natish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmat kuryerlik xizmatidir.

Quyidagilar kuryerlik jo'natmalariga kiradi:

a) hujjatlar mavjud bo'lgan jo'natmalar;

b) tovar joylanmasi mavjud bo'lgan jo'natmalar.

46. Ichki kuryerlik jo'natmalari kuryerlik xizmatlarini ko'rsatadigan pochta aloqasi operatorlari va provayderlari tomonidan belgilanadigan eng qisqa muddatlarda yuboriladi.

Xalqaro kuryerlik jo'natmalari ikki tomonlama bitimlar bilan belgilangan muddatlarda jo'natiladi.”;

22) 47-48-bandlardagi “pochta aloqasi operatorlari” degan so'zlar “pochta aloqasi operatorlari va provayderlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

23) IV bobning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“IV bob. Ichki va xalqaro pochta jo‘natmalarini, shu jumladan, tezkor pochta jo‘natmalarini, kuryerlik jo‘natmalarini jo‘natish”;

24) 50-bandda:

birinchi xatboshidagi “plastik kartochkalar” degan so‘zlar “bank kartalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Pochta to‘lovi davlat belgilari bilan ichki va xalqaro oddiy va buyurtma xatlarni, pochta varaqchalarini, ichki oddiy va buyurtma banderollarni, ichki pochta jo‘natmalari olinganligi to‘g‘risidagi oddiy va buyurtma bildirishnomalarni jo‘natish haqi to‘lanadi.”;

uchinchi xatboshidan “, oddiy mayda paketlarni” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

25) 51-banddagi “plastik kartochkalar” degan so‘zlar “bank kartalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

26) 56-bandning birinchi xatboshisidan “oddiy mayda paket,” va “yoki ichki pul o‘tkazmasi to‘langanligi to‘g‘risidagi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

27) 57-bandning ikkinchi xatboshisidan “oddiy mayda paketlar,” va “yoki ichki pul mablag‘lari to‘langanligi to‘g‘risidagi” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

28) 63-bandda:

birinchi xatboshidan “va yetkazib beradi (topshiradi)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

“a” kichik banddagi “sekogrammalarni” degan so‘z “ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalarni” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

29) IV bobning 2-paragrafi nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2-§. Ichki va xalqaro pochta jo‘natmalarini jo‘natish”;

30) 65-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“65. Pochta qutilariga o‘lchami 114x162 mm va 110x220 mm bo‘lgan pochta konvertlaridagi oddiy xatlar va pochta varaqchalari tashlanadi.”;

31) 68-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“68. Qiymati e‘lon qilingan va (yoki) ustama to‘lovli jo‘natmalar qonunchilikda belgilangan tartibda sug‘urtalanishi mumkin.”;

32) 70-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“70. Ro‘yxatga olinadigan ichki pochta jo‘natmalari jo‘natishga olinganlik to‘g‘risidagi oddiy va buyurtma bildirishnomalar bilan qabul qilinishi mumkin.”;

ikkinchi xatboshidan “va pul o‘tkazmalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

33) 75, 156-bandlardan “va yetkazib berish (topshirish)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

34) 76-bandning ikkinchi xatboshisidagi “odatdagi” degan so‘z “oddiy” degan so‘z bilan almashtirilsin;

35) 77-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Pochta konvertlari, pochta varaqchalari O‘zMSt 154:2024 “Pochta konvertlari. Texnik shartlar”, O‘z DSt 1143:2008 “Pochta varaqchalari. Texnik shartlar”, “Pochta aloqasida xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha talablar” maxsus texnik reglamenti va ushbu Qoidalar talablariga mos kelishi kerak.”;

36) 79-bandda:

birinchi va ikkinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“79. Banderollar va ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalarni o‘rab joylash uchun pochta konvertlari, g‘iloflar, karton qutilar, yog‘och (faner) qutilar qo‘llaniladi. Banderollar va ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalarni o‘rab joylash uchun materiallar sifatida pishiq qog‘oz, polietilen plyonka, och rangdagi

sidirg'a gazlamadan va sertifikatlashtirilgan o'rovlash materiallarining boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Agar banderolda yoki ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan jo'natmada bir nechta predmet yuboriladigan bo'lsa, bu predmetlar o'rovlashdan oldin shpagat bilan bog'lanadi. Og'irligi 500 g dan ortiq bo'lgan oddiy va buyurtma banderollar va ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan jo'natmalar, bundan tashqari, o'rov materiali ustidan xochsimon shaklda shpagat bilan bog'lanadi.”;

uchinchi xatboshidagi “sekogramma” degan so'z “ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan jo'natma” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

37) 83-bandning o'n birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Yuridik shaxs tomonidan pul o'tkazmalari jo'natilganda, jo'natuvchining blankdagi manzilida yuridik shaxsning nomi, uning bank rekvizitlari va joylashgan yeri (pochta manzili), uning nomidan qatnashadigan vakolatli shaxsning ma'lumotlari (famiyasi, ismi, otasining ismi, ushbu Qoidalarning 136-bandida ko'rsatilgan hujjatlardan birining seriyasi va raqami) ko'rsatiladi.”;

38) 84-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“84. Pochta jo'natmalari, posilkalarga ilova qilinadigan blanklardagi, shuningdek, pul o'tkazmalari blanklaridagi barcha manzil ma'lumotlari (agar imkoni bo'lsa, bosma harflar bilan) aniq qilib yoziladi yoki zarur aniqlik bilan texnik vositalardan foydalanib yoziladi. Pul o'tkazmasi blankida tuzatish, o'chirib tashlash, raqamlar va harflarning ustidan takror bo'yashga, qalam bilan qilingan yozuvlarga, shuningdek, xalqaro pul o'tkazmalari manzilida qisqartmalarga yo'l qo'yilmaydi. Blanklarda blanklar matniga kiritilgan belgilardan tashqari, har qanday belgilarni qo'yish taqiqlanadi, xizmatga oid ko'rsatmalar bundan mustasno.”;

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Pochta jo'natmalariga texnik vositalardan foydalanib bosilgan yoki qo'lda yozilgan manzil yorliqlarini yopishtirish mumkin. Yorliqlar uchun oq qog'ozdan

yoki och rangdagi qog‘ozdan foydalaniladi.”;

39) 86-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Tezkor (elektron) xalqaro” degan so‘zlar “Xalqaro” degan so‘z bilan almashtirilsin;

40) 87-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“87. Pochta jo‘natmalari adresatning familiyasi, ismi, otasining ismi ko‘rsatilgan holda yo‘qlab olinadigan qilib yo‘llanishi mumkin. Bunday jo‘natmalar uchun initsiallar, raqamlar, faqat nomlar, soxta nomlar yoki biror shartli belgilarning ko‘rsatilishiga ruxsat etilmaydi.”;

41) 89-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“89. Jo‘natuvchi ichki pochta jo‘natmalarining manzili tomonida ularning turi, toifasi va turkumiga bog‘liq holda quyidagi belgilarni qo‘yadi:”;

“b” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) oddiy (buyurtma) ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalarda – “Oddiy (buyurtma) ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natma” – “Простое (заказное) отправление для слепых”;;”;

“d” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“d) olinganlik to‘g‘risidagi bildirishnoma bilan qabul qilingan jo‘natmalarda va pul o‘tkazmalari blanklarida – “Oddiy (buyurtma) bildirishnoma bilan” – “С простым (заказным) уведомлением”. Bu belgi, shuningdek, posilikalarga ilova qilinadigan blanklarda ham qo‘yiladi;”;

“e” kichik banddagi “Eltib” degan so‘z “Yetkazib” degan so‘z bilan almashtirilsin;

“o” va “u” kichik bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin;

42) 90-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“90. Jo‘natuvchi xalqaro pochta jo‘natmalarining turi, toifasi va turkumiga bog‘liq ravishda, ularning manzilli tomonida quyidagi belgilarni qo‘yadi:”;

“b” kichik band “pochta varaqchalarida” degan so‘zlardan keyin “va banderollarda” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin”;

“g” kichik banddagi “sekogrammalarda –“Cecogrammes” (Секограмма)” degan so‘zlar “ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalarda – “Envois pour les aveugles” (Отправление для слепых)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

“j” kichik banddan “oddiy” degan so‘z chiqarib tashlansin;

“z” va “p” kichik bandlardagi “sekogrammalarda” degan so‘z “ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalarda” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

“c” va “t” kichik bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin;

43) 91-bandning to‘rtinchi xatboshisidagi “sekogrammalar” degan so‘z “ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

44) 95, 108 va 130-bandning birinchi xatboshisidan “va pul o‘tkazmalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

45) 99-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“99. Oddiy pochta jo‘natmasi (bundan posilka mustasno) jo‘natuvchiga onlayn nazorat kassa mashinasi cheki berilmasdan qabul qilinadi, unga ilova qilingan hujjatlarga qo‘shimcha yozuvlar yozilmasdan jo‘natiladi va adresatga tilxatsiz topshiriladi.

Ro‘yxatga olinadigan pochta jo‘natmalarini jo‘natish pochta jo‘natmasini qabul qilishni hujjatli yoki elektron tasdiqlash, jo‘natuvchiga tasdiqlovchi hujjatni qog‘oz (taqvim shtempeli izi tushirilgan onlayn nazorat kassa mashinasining cheki) ko‘rinishida yoki pochta jo‘natmasiga pochmani ro‘yxatga olish raqami (shtrixli pochta identifikatorini) berish, shuningdek pochta jo‘natmasini adresatga imzo qo‘ydirib yoki boshqacha tarzda yetkazib berishni tasdiqlovchi avtomatlashtirilgan (elektron) qurilmalar, uskunalar, axborot tizimlaridan foydalangan holda topshirish orqali amalga oshiriladi. Ro‘yxatga olinadigan pochta jo‘natmalari yuboruvchining manzili majburiy tartibda ko‘rsatilgan holda qabul qilinadi.

Ro'yxat bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslardan qabul qilingan pochta jo'natmalariga bitta onlayn nazorat kassa mashinasi cheki beriladi. Bitta jo'natuvchi tomonidan jo'natiladigan, bir vaqtda bir nechta ro'yxat bo'yicha qabul qilinadigan pochta jo'natmalariga bitta umumiy yoki har bir ro'yxatga alohida onlayn nazorat kassa mashinasi cheklari beriladi.

Pochta jo'natmasi qabul qilinganligi to'g'risidagi onlayn nazorat kassa mashinasi chekinging dublikati berilmaydi.”;

46) 103-bandda:

ikkinchi va to'rtinchi xatboshilardagi “plastik kartochkalardan” degan so'zlar “bank kartalaridan” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bank kartalardan foydalanib, jismoniy shaxslardan qabul qilingan pul o'tkazmalari yuborilayotgan summani naqd pul bilan yoki oluvchining bank kartasiga o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.”;

oltinchi xatboshidagi “plastik kartochkasiga” degan so'zlar “bank kartasiga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

47) 105-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“105. Harbiy xizmatchilar nomiga yo'llanadigan harbiy pochta jo'natmalarini qabul qilish pochta aloqasi obyektlari tomonidan quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi.”;

ikkinchi xatboshidan “va pul o'tkazmalari, shu jumladan, tezkor pul o'tkazmalari” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

uchinchi xatboshidan “va pul o'tkazmalari” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

48) 107-bandning “e” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“e) yo‘qlab olinadigan va harbiy qismlarga yo‘llangan pochta jo‘natmalari.”;

49) 110-bandda:

birinchi xatboshidan “pul o‘tkazmalari,” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

ikkinchi xatboshi “qiymati e‘lon qilingan xatlar,” degan so‘zlardan keyin “banderollar,” degan so‘z bilan to‘ldirilsin;

50) 112-bandning ikkinchi xatboshisidagi “plastik kartochkasiga” degan so‘zlar “bank kartasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

51) 113-bandda:

birinchi xatboshidagi “Turarjoy” degan so‘z “Turar joy” degan so‘z bilan almashtirilsin;

“a” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) pochta varaqchalari, oddiy va buyurtma xatlar va banderollar, og‘irligi 500 g gacha bo‘lgan oddiy va buyurtma mayda paketlar, pochta jo‘natmalarini olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomalar;”;

“v” kichik banddan “va pul o‘tkazmalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

52) 114-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“114. Abonent pochta javonlari ko‘p qavatli uylarning birinchi qavatlarida qurilish tashkilotlari tomonidan o‘rnatiladi. Abonent pochta javonlarini sotib olish va o‘rnatish xarajatlari ushbu ko‘p qavatli uylarni qurish smetasiga kiritiladi.

Aholi punktlarining yakka tartibdagi imoratlar qurilgan hududlarida pochta jo‘natmalarini yetkazib berish uchun qulay bo‘lgan joylarda yakka tartibdagi pochta qutilari yakka tartibda qurilgan uylarning mulkdorlari tomonidan o‘z hisobidan o‘rnatiladi.

Abonent pochta javonlarini, yakka tartibdagi pochta qutilarini yaroqli holatda saqlab turish tegishincha uy-joy fondi tasarrufida bo‘lgan tashkilotlar va (yoki) boshqaruvchi tashkilotlar (boshqaruvchi) tomonidan, uy-joy mulkdorlari

shirkatlari yoki uylarning (ko'p kvartirali uylarning turar joylari) mulkdorlari tomonidan amalga oshiriladi.”;

53) 115-bandda:

birinchi xatboshi va “j” kichik banddagi “abonent” degan so‘z “yakka tartibdagi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

“d” kichik banddan “va pul o‘tkazmalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

“e” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“e) ro‘yxatga olinadigan pochta jo‘natmalari to‘g‘risidagi dastlabki xabarnomalar;”;

54) 116-banddagi “abonent” degan so‘z “yakka tartibdagi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

55) 117-banddan “va pul o‘tkazmalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

56) 118-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“118. Buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar, ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalari, “M” qoplari, pochta jo‘natmalarini olish to‘g‘risidagi bildirishnomalar adresatning imzosini qo‘ydirib adresatga topshiriladi.

Buyurtma xatlar, pochta varaqchalari, banderollar, mayda paketlar, pochta jo‘natmalari olinganligi to‘g‘risidagi bildirishnomalar (“O‘z qo‘liga topshirilsin. Buyurtma bildirishnoma bilan” – “Вручить лично. С заказным уведомлением” belgisi bo‘lgan xatlar va pochta varaqchalaridan tashqari), tezkor pochta jo‘natmalari oilaning voyaga yetgan a‘zolariga ishonchnomasiz, ushbu Qoidalarining 136-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan biri va ularning adresatga aloqadorligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinganda berilishi, adresatning yozma murojaati bo‘yicha esa - uy bo‘yicha qo‘shnilarga berilishi yoki abonent pochta javoni qutichalariga yoki yakka tartibdagi pochta qutilariga tashlanishi mumkin.

Adresat va oilaning voyaga yetgan a‘zolari bo‘lmaganda, abonent pochta javoni qutichasida yoki yakka tartibdagi pochta qutisida adresat pochta

jo‘natmasini olish uchun pochta aloqasi obyektiga taklif qilingan xabarnoma qoldiriladi.”;

57) 119-banddagi “abonent” degan so‘z “yakka tartibdagi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

58) 121-122-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“121. Talab qilib olinguncha manzillangan oddiy pochta jo‘natmalarini, ro‘yxatdan o‘tgan pochta jo‘natmalarini topshirish ushbu Qoidalarining 136-bandida ko‘rsatilgan hujjatlardan biri taqdim etilganda yoki pochta operatori tomonidan belgilanadigan, pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanuvchisi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ishonchli aniqlashni ta‘minlaydigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborotning elektron tashuvchilaridan foydalanib kodlar, parollar asosida, shuningdek boshqa texnik vositalardan foydalangan holda yoki ushbu Qoidalarining 137-138-bandlarida belgilangan tartibda boshqa usul yordamida amalga oshiriladi.

122. Baliqchilik xo‘jaliklari, geologik partiyalar (ekspeditsiyalar) ishchilariga, fermalarda, ishlab chiqarish uchastkalarida va brigadalardagi qishloq xo‘jalik tashkilotlarining ishchilariga, yaylovlardagi cho‘ponlarga, o‘rmon uchastkalari va yog‘och-sanoat xo‘jaliklari, temir yo‘l razyezdlari ishchilariga, jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o‘tayotgan shaxslarga va aholi punktlaridan tashqarida bo‘lgan boshqa adresatlarga pochta jo‘natmalarini yetkazib berish adresatlar ishlayotgan (ta‘minlanayotgan) tashkilotlarning kuchlari va vositalari bilan amalga oshiriladi.”;

59) 126-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“126. Adresatning iltimosiga ko‘ra va pochta aloqasi operatori, provayderida ushbu Qoidalarining 125-bandi “a”, “b” va “g” kichik bandlarida ko‘rsatilgan imkoniyatlar bo‘lganda, pochta jo‘natmalari qo‘shimcha haq evaziga uyga yetkazib berilishi mumkin.”;

60) 127-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“127. Adresatlar pochta jo‘natmasini olish uchun kelmaganlarida, ularga ikkinchi marta xabarnoma yetkaziladi va tilxat orqali topshiriladi:”;

yettinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu Qoidalarning 186-bandida ko‘rsatilgan saqlash muddati tugagandan keyin, adresatlar tomonidan olinmagan oddiy xatlar, pochta varaqchalari, ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalari, “M” qoplari, banderollar tarqatilmagan pochta jo‘natmalari qatoriga topshiriladi. Adresatlar tomonidan olinmagan ro‘yxatga olinadigan pochta jo‘natmalari jo‘natuvchilarning hisobidan ularga qaytarib yuboriladi. Belgilangan saqlash muddati o‘tgandan keyin yoki jo‘natuvchi qaytarib yuborilgan pochta jo‘natmasini olish va qaytarib jo‘natish haqini to‘lashni rad etganda, ular vaqtincha saqlash uchun tarqatilmagan pochta jo‘natmalari qatoriga topshiriladi.”;

61) 128-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“128. Adresat kelib tushgan pochta jo‘natmalarini olishdan voz kechganda, u pochta jo‘natmasida va (yoki) xabarnomada bu to‘g‘rida belgi qo‘yishi kerak. Adresat bunday belgi qo‘yishni rad etganda, uni pochta aloqasi xodimi amalga oshiradi. Bunday jo‘natmalar qaytarilganligi uchun haq jo‘natuvchidan qaytarilgan pochta jo‘natmasini unga berish paytida olinadi.”;

62) 136-bandning birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“136. Pochta jo‘natmalarini yuborish va (yoki) olish uchun zarur bo‘lgan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lib:”;

63) 139-band “Ro‘yxatga olinadigan pochta jo‘natmalari” degan so‘zdan keyin “(pul o‘tkazmalaridan tashqari)” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin;

64) IV bobning 3-paragrafi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3-§. Ichki va xalqaro tezkor pochta jo‘natmalarini jo‘natish”;

65) 143-banddagi “kvitansiya” degan so‘z “onlayn nazorat kassa mashinasining cheki” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

66) IV bobning 4-paragrafi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4-§. Ichki va xalqaro kuryerlik jo‘natmalarini jo‘natish”;

67) 158-banddan “va yetkazib berish (topshirish)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

68) 159-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“159. Ichki va xalqaro kuryerlik jo‘natmalari ro‘yxatga olinadigan jo‘natmalar hisoblanadi va ushbu Qoidalarining 99-bandida belgilangan tartibda jo‘natuvchiga onlayn nazorat kassa mashinasining cheki berilgan holda qabul qilinadi.

Kuryerlik jo‘natmasi qabul qilinganligi to‘g‘risidagi onlayn nazorat kassa mashinasining chekinin dublikati berilmaydi.”;

69) 168-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“168. Foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga egadirlar:

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida universal pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanish;

o‘zlarining huquq va majburiyatlari, mazkur Qoidalar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar to‘g‘risidagi va ushbu xizmatlarga doir tariflar haqidagi axborotdan erkin foydalanish;

pochta va kuryerlik jo‘natmalarini o‘zining pochta manzili bo‘yicha, yo‘qlab olish tarzida yoki pochtomatdan olish;

pul o‘tkazmalarini pochta manzili bo‘yicha yoki yo‘qlab olish tarzida olish;

o‘zining pochta manziliga kelib tushgan pochta yoki kuryerlik jo‘natmalaridan voz kechish;

qiymati e‘lon qilingan jo‘natma joylanmasining bahosi summasini joylanmaning haqiqiy qiymatiga muvofiq mustaqil ravishda aniqlash;

pochta aloqasi operatorlari va provayderlari tomonidan o‘z vaqtida hamda sifatli xizmat ko‘rsatilishi;

pochta yoki kuryerlik xizmatlari ko'rsatilmaganligi yoki lozim darajada ko'rsatilmaganligi natijasida yetkazilgan moddiy zararlarning o'rni qoplanishi, ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishi;

mansabdor shaxslarning foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan bevosita sudga yoxud bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga shikoyat bilan murojaat etish.

Foydalanuvchilar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.”;

70) 170-bandda:

birinchi xatboshi va “a” kichik banddan “yoki pul o'tkazmasi” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

“b” va “v” kichik bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) pochta, kuryerlik jo'natmasini boshqa shaxsga va boshqa manzil bo'yicha berilishi yoki boshqa manzil bo'yicha aynan o'sha adresatga yetkazib berilishi to'g'risida farmoyish berish;

v) pochta, kuryerlik jo'natmasining tayinlangan joydagi pochta aloqasi obyektida u kelib tushgan kundan boshlab ikki oygacha uzaytirish huquqiga ega.”;

71) 172- bandda:

birinchi xatboshidan “yoki pul o'tkazmasi” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ariza bilan birga onlayn nazorat kassa mashinasining cheki taqdim etiladi, agar bu jo'natishga besh dona va undan ortiq miqdorda qabul qilingan ro'yxatga olinadigan pochta, kuryerlik jo'natmalari taalluqli bo'lsa, u holda ushbu pochta va kuryerlik jo'natmalarining ro'yxati yoki ularning tasdiqlangan nusxalari ham taqdim etiladi.”;

72) 173-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“173. Jo‘natuvchi yozma ariza asosida, tayinlangan joyga hali jo‘natilib ulgurilmagan pochta, kuryerlik jo‘natmasini qaytarib olish huquqiga ega. Bu holda jo‘natuvchiga pochta to‘lovi davlat belgilari bilan to‘langan va ko‘rsatilgan qo‘shimcha xizmatlar uchun to‘lovdan tashqari undan olingan to‘lov qaytariladi.

Pul o‘tkazmalari yuridik shaxslarga pul mablag‘larini ularning hisob raqamlariga o‘tkazish yo‘li bilan qaytariladi, bu o‘tkazmalar jo‘natilganligi uchun to‘langan to‘lov qaytarilmaydi.

Tayinlangan joyga jo‘natib ulgurilmagan pochta, kuryerlik jo‘natmalarini olish bo‘yicha yozma ariza jo‘natuvchi tomonidan mazkur Qoidalarining 172-bandi bilan belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.”;

73) 175-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“175. Adresatga qo‘shimcha to‘lov evaziga quyidagilar to‘g‘risida yozma farmoyish berish huquqi taqdim etilgan:

a) pochta aloqasi obyektida, o‘z nomiga kelgan pochta, kuryerlik jo‘natmalarining ular kelib tushgan kundan boshlab ikki oy mobaynida saqlanishi to‘g‘risida;

b) o‘z nomiga kelgan pochta, kuryerlik jo‘natmalarini boshqa manzil bo‘yicha jo‘natish yoki yetkazib berish to‘g‘risida;

v) o‘z nomiga yo‘qlab olish tarzida keladigan pochta jo‘natmalarini uyga yetkazib berish to‘g‘risida, agar bunday pochta jo‘natmalarini uyga yetkazib berish mazkur Qoidalar bilan nazarda tutilgan bo‘lsa.”;

74) 177-178-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“177. Foydalanuvchilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi Qonuni va ushbu Qoidalarga rioya etishi;

o‘ziga ko‘rsatilgan pochta aloqasi xizmatlari uchun haq to‘lashi;

taqiqlangan moddalar va predmetlar jo‘natilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining ish sifatini pasaytirishga qaratilgan xatti-harakatlar qilmasligi shart.

Foydalanuvchilar zimmasida qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

178. Pochta aloqasi operatorlari va provayderlari quyidagi huquqlarga ega:

pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish;

qonunchilikka muvofiq outsorsing asosida bank xizmatlarini ko‘rsatish va operatsiyalarini bajarish, elektron tijoratga, shu jumladan tovarlarni saqlash hamda yetkazib berishga doir faoliyatni amalga oshirish;

o‘z faoliyatida timsoldan foydalanish.

Pochta aloqasi operatorlari va provayderlari tomonidan outsorsing asosida ayrim turdagi bank xizmatlarini ko‘rsatish tartibi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilanadi.”;

75) 180-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“180. Pochta aloqasi operatorlari va provayderlari pochta aloqasi siriga rioya etilishini kafolatlaydi. Pochta aloqasi operatorlari va provayderlarining barcha xodimlari pochta aloqasi sirini saqlashi shart.

Pochta aloqasi sirini ta‘minlash maqsadida quyidagilar taqiqlanadi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno:

boshqa shaxsga pochta va kuryerlik jo‘natmalari haqidagi ma‘lumotlarni, shuningdek foydalanuvchilarning manzili va shaxsiga doir ma‘lumotlarni ma‘lum qilish;

pochta va kuryerlik jo‘natmalarini ochish;

foydalanuvchi hamda (yoki) uning pochta va kuryerlik jo‘natmalari tarkibi (joylanmasi) to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatish.”;

76) V bobning 3-paragrafi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3-§. Pochta, kuryerlik jo‘natmalarini qayta jo‘natish va qaytarish shartlari”;

77) 182-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“182. Pochta, kuryerlik jo‘natmasi (ustama to‘lovli pul o‘tkazmasidan tashqari) jo‘natuvchining manzili bo‘yicha quyidagi hollarda qaytariladi:”;

“b” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) adresat pochta, kuryerlik jo‘natmasini olishdan voz kechganda;”;

“d” kichik band o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin;

“j¹” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“j¹) pochta, kuryerlik jo‘natmasida adresatning manzili to‘liq ko‘rsatilmaganda yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilganda;”;

78) 183-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“183. Pochta, kuryerlik jo‘natmalari (pul o‘tkazmalaridan tashqari)ni yangi manzil bo‘yicha qayta jo‘natish va qaytarish uchun to‘lov undiriladi, uning miqdori qaytarish (yangi manzilga qayta jo‘natish) sanasida amal qiladigan tariflar bo‘yicha belgilanadi. Pul o‘tkazmalarini yangi manzil bo‘yicha qayta jo‘natish va qaytarish uchun to‘lov undirilmaydi.”;

79) 189-bandning birinchi-uchinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“186. Yetarlicha asoslar mavjud bo‘lganda, huquqni muhofaza qiluvchi organlar qonunchilik hujjatlari bilan nazarda tutilgan tartibda pochta, kuryerlik jo‘natmalarini xatlab qo‘yish, shuningdek, ularni ko‘zdan kechirish va olib qo‘yish huquqiga egadir.

Pochta, kuryerlik jo‘natmalarini xatlab qo‘yish faqat sudning ajrimiga muvofiq amalga oshiriladi.

Pochta, kuryerlik jo‘natmasini xatlab qo‘yish to‘g‘risidagi ajrim tegishli pochta aloqasi obyektiga rahbariga yuboriladi va uni bajarish mazkur boshliq uchun majburiydir.”;

80) 187-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“187. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilingan pochta, kuryerlik jo‘natmalarini qidirish to‘g‘risida arizalar kelib tushganda, pochta aloqasi operatorlari va provayderlari bu haqda jo‘natuvchi yoki adresatni faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ruxsati bilan xabardor qilishlari mumkin.”;

81) V bobning 5-paragrafi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5-§. Pochta va kuryerlik jo‘natmalarini saqlash muddatlari”;

82) 188-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“188. Noaniqligi yoki foydalanuvchining zarur manzili bo‘yicha ma‘lumotlarning bo‘lmasligi, adresatning jo‘nab ketishi yoki pochta aloqasi operatori va provayderi tomonidan pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan boshqa holatlar sababli yetkazib berish mumkin bo‘lmagan pochta, kuryerlik jo‘natmasi mazkur Qoidalarning 189-bandida belgilangan muddatlar tugagandan keyin jo‘natuvchiga qaytariladi.

Noaniqligi yoki foydalanuvchining zarur manzili bo‘yicha ma‘lumotlari bo‘lmasligi sababli yetkazib berilmagan pochta, kuryerlik jo‘natmalarini jo‘natuvchiga qaytarish imkoni bo‘lmaganda yoki jo‘natuvchi qaytarilgan pochta, kuryerlik jo‘natmalarini olishdan voz kechgan holda, ular pochta aloqasi operatori yoki provayderi tomonidan tarqatilmaganlar sifatida vaqtinchalik saqlash uchun qabul qilinadi.”;

83) 189-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Pochta jo‘natmalarini saqlash muddati pochta jo‘natmasi pochta aloqasi obyektiga kelgan kundan keyingi ish kunidan boshlab hisoblanadi.”;

84) 190-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“190. Pochta aloqasi obyektlari tomonidan jo‘natuvchining manzili bo‘yicha qaytarilgan ichki va xalqaro pochta, kuryerlik jo‘natmalarini jo‘natuvchilarga topshirish mumkin bo‘lmaganda yoki jo‘natuvchilar ularni olishdan voz kechgan holda, pochta aloqasi obyektlarida bir oy saqlanadi.”;

85) 193-bandning uchinchi xatboshisidan “, pul o‘tkazmalari” degan so‘zlar chiqarib tashlansin;

86) 194-195-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“194. Pochta aloqasi operatorlari va provayderlari pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun foydalanuvchilarga yetkazilgan zararlarning o‘rnini qonunchilikka muvofiq qoplaydi.

195. Foydalanuvchilarning talabiga ko‘ra pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatishda ularga yetkazilgan zararlarni O‘zbekiston Respublikasining “Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi Qonunining 31-moddasida nazarda tutilgan holatlarda va miqdorlarda pochta aloqasi operatori yoki provayderi tomonidan qoplanadi.”;

87) 197-198-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“197. Pochta va kuryerlik jo‘natmalarining yo‘qotilganligi, buzilganligi (shikastlanganligi), topshirilmaganligi yoki ularni jo‘natish muddatlari buzilganligi uchun, agar bu kabilar yengib bo‘lmas kuch yoki pochta, kuryerlik jo‘natmalari joylanmasining xususiyatlari tufayli sodir bo‘lganligi isbotlansa, shuningdek pochta, kuryerlik jo‘natmalarini bojxona ko‘rigidan o‘tkazish muddatlari buzilganligi yoxud ular bojxona organlari tomonidan olib qo‘yilganligi uchun pochta aloqasi operatorlari va provayderlari zararlarning o‘rnini qoplamaydi.

198. Pochta aloqasi xizmatlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi oqibatida yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha to‘lov pochta aloqasi operatorlari, provayderlari tomonidan pochta, kuryerlik jo‘natmasini qabul qilish yoki topshirish joyida da‘vo qabul qilingan kundan boshlab o‘n kundan kechiktirmasdan amalga oshiriladi.”;

88) 201-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Pochta, kuryerlik jo‘natmalarida manzilning to‘g‘ri va to‘liq yozilganligi uchun ushbu pochta, kuryerlik jo‘natmalarining jo‘natuvchilari javobgar bo‘ladilar.”;

89) 203-bandda:

ikkinchi-to‘rtinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Pochta va kuryerlik jo‘natmalari topshirilmaganligi, o‘z vaqtida yetkazib berilmaganligi yoki yo‘qotilganligi, buzilganligi (shikastlanganligi) to‘g‘risidagi talabnomalar, shu jumladan pochta va kuryerlik jo‘natmalarini qidirish arizalari pochta, kuryerlik jo‘natmalari topshirilgan kundan e‘tiboran olti oy davomida taqdim etiladi.

Pochta aloqasi operatorlari yoki provayderlariga da‘volar ro‘yxatga olinadigan pochta, kuryerlik jo‘natmasini qabul qilish joyida yoki yuborilishi mo‘ljallangan joyda taqdim etilishi mumkin.

Xalqaro pochta, kuryerlik jo‘natmalari bo‘yicha da‘volar Umumjahon pochta ittifoqi aktlari va ikki tomonlama bitimlar bilan belgilangan muddatlarda qabul qilinadi.”;

oltinchi xatboshidagi “og‘zaki, yozma yoki elektron shaklda” degan so‘zlar “yozma shaklda” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

90) 204-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“204. Ro‘yxatga olinadigan pochta, kuryerlik jo‘natmalariga nisbatan da‘volar, shu jumladan, yetkazilgan zararining o‘rni qoplanishini talab qilish ularni qabul qilish paytida berilgan onlayn nazorat kassa mashinasining cheklar, ushbu Qoidalarining 108, 110-bandlarida nazarda tutilgan holatlarda esa bundan tashqari, ro‘yxatlar nusxasi taqdim etilganda qabul qilinadi.”;

91) 206-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“206. Agar pochta, kuryerlik jo‘natmalari pochta aloqasi obyektiga turli onlayn nazorat kassa mashinasining cheklar va ro‘yxatlar bo‘yicha topshirilgan

bo'lsa, u holda yo'qolgan pochta, kuryerlik jo'natmalari, joylanmalarning yetishmasligi yoki buzilganligi (shikastlanganligi) uchun zararni qoplash to'lovi to'g'risidagi da'volar ular topshirilgan har bir onlayn nazorat kassa mashinasining cheki va ro'yxat bo'yicha alohida qabul qilinadi.”;

92) 207-bandda:

“a” kichik band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) pochta jo'natmasining turi va toifasi, kuryerlik jo'natmasining turi;”;

“b” kichik banddagi “kvitansiya” degan so'z “onlayn nazorat kassa mashinasining cheki” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

93) 1-ilovada:

4-pozitsiyaning “Jo'natma turi” ustunidagi “Sekogramma” degan so'z “Ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan jo'natma” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

6-pozitsiyada:

“Jo'natma turi” ustunidan “a) bo'linadigan joylanma bilan” va “b) bo'linmaydigan joylanma bilan” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

“Og'irligi (kg)” ustunidagi “10” va “15” degan raqamlar “20” degan raqam bilan almashtirilsin;

8-pozitsiya chiqarib tashlansin;

94) 2-ilovada:

3-pozitsiyaning “Jo'natma turi” ustunidagi “Sekogramma” degan so'z “Ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan jo'natma” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

4-pozitsiyaning “O'rovdagi o'lchamlari” ustunidagi “sekogrammalarga” degan so'z “ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan jo'natmalarga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

8-pozitsiyaning “Jo'natma turi” ustunidagi “Tegishli o'rovdagi bosma nashrlar” degan so'zlar “Banderol” degan so'z bilan almashtirilsin;

95) 3-ilovaning 2-bandining birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Banderollar va ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan jo‘natmalar:”;

96) 4 va 5-ilovalar mazkur o‘zgartirish va qo‘shimchalarning 1 va 2-ilovalariga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

“Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyruqqa kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga 1-ILOVA

Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish qoidalariga 4-ILOVA

Ichki kuryerlik jo‘natmalarining cheklangan o‘lchamlari va og‘irligi

No	Jo‘natma turi	Og‘irligi (kg)	O‘rovdagi o‘lchamlari
1.	Hujjatlar mavjud bo‘lgan kuryerlik jo‘natmasi	2	Har qanday o‘lchami - 1500 mm dan ortiq emas. Uzunligi va uzunlikdan boshqa yo‘nalishda o‘lchangan eng katta aylana yig‘indisi - 3000 mm dan ortiq emas.
2.	Tovar joylanmasi mavjud bo‘lgan kuryerlik jo‘natmasi	30	Eng ko‘p: o‘lchamlardan biri uchun 1500 mm yoki uzunligi va uzunlikdan boshqa yo‘nalishda olingan eng katta aylana yig‘indisi 3000 mm. Eng kam: 2 mm dan og‘ish bilan, 90 x 140 mm (eng kam qalinligi 50 mm bo‘lganda).

				”.
--	--	--	--	----

Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish
qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi buyruqqa
kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarga 2-ILOVA

Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga 5-
ILOVA

Xalqaro kuryerlik jo'natmalarining cheklangan o'lchamlari va
og'irligi

No	Jo'natma turi	Og'irligi (kg)	O'rovdagi o'lchamlari
1.	Hujjatlar mavjud bo'lgan kuryerlik jo'natmasi	2	Har qanday o'lchami - 1500 mm dan ortiq emas. Uzunligi va uzunlikdan boshqa yo'nalishda o'lchangan eng katta aylana yig'indisi - 3000 mm dan ortiq emas.
2.	Tovar joylanmasi mavjud bo'lgan kuryerlik jo'natmasi	30	Eng ko'p: o'lchamlardan biri uchun 1500 mm yoki uzunligi va uzunlikdan boshqa yo'nalishda olingan eng katta aylana yig'indisi 3000 mm. Eng kam: 2 mm dan og'ish bilan, 90 x 140 mm (eng kam qalinligi 50 mm bo'lganda).

				”
--	--	--	--	---